

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2025 yil yakunlari bo‘yicha korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi hisobot

Milliy qonunchilik talablari va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ichki tartib-qoidalariga amal qilgan holda 2024 yil dekabr oyidan boshlab Vazirlik markaziy apparati va uning bo‘ysunuvidagi tashkilotlarida korrupsiyaviy holatlar haqida ma‘lumot berish uchun jismoniy va yuridik shaxslar uchun alohida aloqa kanallari yaratildi. Mazkur kanallar haqidagi ma‘lumotlar Tashqi ishlar vazirligi va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallar orqali tarqatildi.

2025 yil yakunlari bo‘yicha, ushbu aloqa kanallari Vazirlik mas‘ul bo‘linmasiga markaziy apparatda yoki bo‘ysunuvdagi tashkilotlarda mansabdor shaxs vazifalarini bajarib kelayotgan diplomatik xizmat xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaviy holatlar yoki unga oid huquqiy qonunbuzarliklar to‘g‘risida murojaatlar kelib tushmadi.

Shu kunga qadar mazkur yonalishda Vazirlik tomonidan maqsadli choralar ko‘rib kelinmoqda. Joriy yilda Tashqi ishlar vazirligi mas‘ul bo‘linmalari tomonidan tashkilot tizimida egallab turgan lavozimidan qat‘iy nazar mehnat qilib kelayotgan barcha xodimlar va ishga yangi qabul qilinayotgan mutaxassislarga korrupsiyaviy holatlarga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari tushuntirib berilmoqda.

Shuningdek, mazkur sohadagi ishlar qamrovi tobora kengayishi va tegishli talablar kuchyib borishi tufayli davlat xizmatchilarining zimmasiga yuklatilgan qo‘shimcha majburiyatlar, ulardan kelib chiqadigan javobgarlik turlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumot va xizmat vazifalarini samarali bajarish yuzasidan amaliy maslahatlar berib kelinmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini milliy qonunchilik talablariga muvofiq ravishda ko‘rib chiqish va ularga o‘z vaqtida javob qaytarish, shuningdek ish jarayonida yuzaga kelayotgan muammoli masalalarni belgilangan vakolatlar doirasida samarali hal qilish yuzasidan zarur shart-sharoitlarni yaratish, murojaat etuvchilarga zarur tavsiyalar berilishiga qo‘shimcha e‘tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur jarayonga jalb etilgan mas‘ul bo‘linmalar xodimlarini professional ko‘nikmalarini va amaliy tajribasini oshirishga, ishda davlat xizmatchisiga mos ravishda xulq-atvorda bo‘lishga, Vazirlik tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga, ularning ochiqligini ta‘minlashga va nazorat qilishga tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Xususan, amaliyotda ilk marotaba Tashqi ishlar vazirligi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ximat ko'rsatish jarayoniiga bevosita jalb etilgan tarkibiy bo'linmalar mas'ul xodimlari faoliyatini baholash bo'yicha ichki idoraviy mexanizm yaratildi. Unga ko'ra, fuqarolar uchun Vazirlik bilan munosabatga kirishganlarida tashkilotning asosiy faoliyat yonalishlarini mustaqil tarzda baholash imkoniyati va ularning murojaatlarini ko'rib chiqish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy holatlar yoki extimoliy xavf-xatarlar to'g'risida ma'lumot berish imkoniyatlari kengaytirildi.

2026 yil davomida ichki idoraviy ish jarayonlar ochiqqligini oshirish, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks takliflarni ishlab chiqishga va amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etish, ish yonalishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ayniqsa jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish mexanizmlarini qo'shimcha tarzda o'rganish va tezkorligini oshirish bo'yicha choralar ko'rilishi rejalashtirilgan. Fuqarolar bilan ishlashda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va ularning tarqalib ketishining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi.

**O'zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligining
Komplaens nazorati xizmati**

2026 yil 5 yanvar